



**ГРАФИК ПЛАТЕЖЕЙ\***

к договору (контракту) от 31.01.2022 г. № 9900064589

между "Самарканд сув таъминоти" МЧЖ и Самарканд шаҳар Давлат солиқ инспекцияси на общую сумму **4318860,00**

Глава 093  
Казначейский лицевой счёт 100010860184017011332093001

(в сумах)

Наименование месяцев 2022 г.				Всего
	4224000			
Январь	1 439 620,00			1 439 620,00
Февраль	1 439 620,00			1 439 620,00
Март	1 439 620,00			1 439 620,00
Апрель				
Май				
Июнь				
Июль				
Август				
Сентябрь				
Октябрь				
Ноябрь				
Декабрь				
<b>Всего за год</b>	<b>4 318 860,00</b>			<b>4 318 860,00</b>

Всего 4318860,00 сум

Четыре миллиона триста восемнадцать тысяч восемьсот  
шестьдесят сум 00 тийин  
сумма прописью

Из вышеуказанной суммы \_\_\_\_\_ сум или \_\_\_\_\_% \*\*\* от общей суммы договора  
подлежат предплате в \_\_\_\_\_ мес. 20\_\_ г.

(\*) — Бюджетные организации, получатели бюджетных средств и получатели средств ДЦФ, предоставляют в казначейские органы в 2-х экземплярах;

(\*\*) — Указывается раздел, глава, параграф и статья расхода;

(\*\*\*) — Месячный \_\_\_\_\_% , от указанной выше суммы который необходимо оплатить до \_\_\_\_\_ числа текущего месяца.

(Данное поле заполняется со стороны бюджетных организаций, получателей бюджетных средств и получателей средств ДЦФ в случае осуществления предплаты в соответствии с порядком, установленным законодательством по договорам за оказание коммунальных услуг, услуг связи и предоставления в регулярном порядке товара (работ, услуг) указанных в правовых документах.)

Руководитель заказчика



М.П.

(подпись)

Толлиев Элёр Мусурмонович  
Ф.И.О.

Главный бухгалтер заказчика

(подпись)

Нуритдинов А. Т.  
Ф.И.О.

Принял работник казначейского подразделения

(подпись)

Получил работник  
заказчика

(подпись)

«\_\_» \_\_\_\_\_ 20\_\_ г.

«\_\_» \_\_\_\_\_ 20\_\_ г.

Самарканд шаҳар давлат солиқ инспекциясига етказиб берилаётган сувокова микдори

2022 йил 31 январ даги 9900064589 сонли шартномага илова

Ойлар	Нархи (сумларда)	Чораклик жами куб метр	Бюджет маблаглардан	Махсус х/р маблаглардан
<b>1 чорак</b>	<b>3 270</b>	<b>588</b>	<b>1 922 760</b>	
Январ	3 270	196	640 920	
Феврал	3 270	196	640 920	
Март	3 270	196	640 920	
<b>2 чорак</b>				
Апрел				
Май				
Июн				
<b>3 чорак</b>				
Июл				
Август				
Сентябр				
<b>4 чорак</b>				
Октябр				
Ноябр				
Декабр				
<b>Йиллик жами</b>	<b>3 270</b>	<b>588</b>	<b>1 922 760</b>	

Истеъмолчи ДСИ

М.У



**Самарканд шаҳар солиқ инспекциясига етказиб берилаётган ичимлик суви микдори**

2022 йил 31 Январаб даги 9900064589 сонли шартномага илова

Ойлар	Нархи (сумларда)	Чораклик жами куб метр	Бюджет маблаглардан	Махсус х/р маблаглардан
<b>1 чорак</b>	<b>4 075</b>	<b>588</b>	<b>2 396 100</b>	
Январ	4 075	196	798 700	
Феврал	4 075	196	798 700	
Март	4 075	196	798 700	
<b>2 чорак</b>				
Апрел				
Май				
Июн				
<b>3 чорак</b>				
Июл				
Август				
Сентябр				
<b>4 чорак</b>				
Октябр				
Ноябр				
Декабр				
<b>Йиллик жами</b>	<b>4 075</b>	<b>588</b>	<b>2 396 100</b>	

Истеъмолчи ДСИ

М.У



## II guruh (III guruh) iste'molchilariga suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish xizmatlari ko'rsatish yuzasidan tuzilgan

9900064589 sonli SHARTNOMA

31.9.2022 y.

Ushbu shartnoma «Samarqand suv ta'minoti» MCHJ, keyingi o'rinlarda "Ta'minotchi" deb yuritiladi, Nizom asosida faoliyat yurituvchi direktori Yusupov Komilbek Shuhratovich timsolida, bir tomondan va keyingi o'rinlarda "Iste'molchi" deb yuritiluvchi Samarqand viloyati davlat soliq inspektorati Nizom asosida ish olib boruvchi BO'LIQ 7 M. TOMICHEV, ikkinchi tomondan, quyidagilar haqida tuzildi:

### I. Shartnoma predmeti

- 1.1. Mazkur shartnoma ichimlik suvini yetkazib berish va oqova suvni chiqarish xizmatlari ko'rsatish bo'yicha tuzilgan bo'lib, shartnomaning umumiy qiymati 4318860 so'mni tashkil qildi.
- 1.2. «Ta'minotchi» «Iste'molchi»ni O'zDSt 950: 2011 «Ichimlik suvi, gigiyenik talablar va sifat nazorati» amaldagi standartiga muvofiq ravishda barqaror ta'minlaydi. Ushbu standart nazorat Davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati tomonidan amalga oshirilib, suv quvurlari ta'rif qiymatida (QQS ni hisobga olgan holda) xo'jalik-maishiy va ishlab chiqarish-texnologik ehtiyojlarga yo'naltiradi.
- 1.3. «Iste'molchi» o'rnatilgan muddatlar ichida "Ta'minotchi"ga ko'rsatilgan suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish xizmatlari uchun to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.
- 1.4. Taraflar ushbu shartnomaning suv ta'minoti va oqova suvini chiqarish bo'yicha shartlarini bajarishda O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi talablariga va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 15 iyuldagi 194-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Iste'molchilarga suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish xizmatlari ko'rsatish Qoidalari" (keyinchalik matnda - Qoidalar deb yuritiladi) ga rioya qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladilar.
- 1.5. «Iste'molchi» ushbu shartnomaga o'zining tasarrufidagi barcha obyektlarining (filial va sub-iste'molchilarning) dislokatsiyasini, ularning suvga bo'lgan ehtiyojlarini ko'rsatgan holda, kadastr nusxasini taqdim etishi, shuningdek rekvizitlari (bank ma'lumotlari, yuridik manzili) dagi o'zgarishlar haqida xabardor qilishi lozim. Iste'molchining hisobga olinmagan ob'ekti aniqlanganda, suv va oqova sarfi Qoidalarga asosan qayta hisob-kitob qilinadi.

### II. Umumiy qoidalar

- 2.1. Ichimlik suvi bilan ekinlarni sug'orish, hovlilar, piyodalar yo'lakchalariga belgilangan vaqtdan tashqari suv sepish va ichimlik suvidan avtomashinalarni yuvish uchun foydalanish qat'iyan man etiladi.
- 2.2. Suv ta'minoti tizimlaridagi ichimlik suvi iste'molchi (sub-iste'molchi)larning xo'jalik-iste'mol va kommunal-maishiy ehtiyojlari, yong'inlarni o'chirish, shuningdek, ichimlik suvi talab etiladigan texnologik va ishlab chiqarish jarayonlari uchun mo'ljallangan. "Ta'minotchi"ning texnik imkoniyatlari mavjud bo'lgan holatlarda, ixtisoslashgan iste'molchilarga ichimlik suvi markaziy kommunal suv ta'minoti tizimlaridan yetkazib beriladi.
- 2.3. Iste'molchining ichimlik suv tarmog'idan suv olib, kanalizatsiya tarmoqlariga oqova suv chiqaruvchi subiste'molchilar ushbu holat yuzasidan iste'molchi bilan shartnoma tuzadilar. Asosiy iste'molchi bilan ISKX tashkiloti o'rtasida tuzilgan shartnoma ilovasida iste'molchining tarmoqlariga ulangan barcha subiste'molchilar, ularning nomlanishi, qaysi idoraga tegishli ekanligi, ular sarf qiladigan va oqizadigan suv hajmiga doir ma'lumotlar, suvni hisobga olish asboblarning bor-yo'qligi kabi ma'lumotlar qayd etilishi lozim.
- 2.4. Suv o'lchagich asbobini yechish, qiyoslashdan o'tkazish va o'rnatish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 20 avgustdagi № 698-sonli Qarori bilan tasdiqlangan Ma'muriy reglamentga muvofiq amalga oshiriladi (sanoat suv hisoblagichlari istisno).
- 2.5. Suvni hisobga olish asboblari O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi tomonidan tekshirilganidan so'ng, iste'molchining yozma ravishdagi arizasiga asosan suv o'lchash asbobi ISKX tashkiloti tomonidan ro'yhatga olinadi (plombalanadi).
- 2.6. "Iste'molchi"ga o'rnatilishi lozim bo'lgan suv o'lchash qurilmalarning shartli o'tkazgichining diametri (kalibri) hisob-kitob asosida aniqlanadi, obyektning maksimal suv iste'moli va minimal suv iste'moliga tekshiriladi va "Iste'molchi" bilan kelishiladi. Hisoblash qurilmasi uchun o'rnatilgan minimal iste'mol miqdoridan kam miqdorda suv iste'mol qilinganda, «Ta'minotchi» xodimi suv o'lchash tarmog'ini qaytadan qurilma bilan ta'minlash uchun ko'rsatma beradi, ushbu ko'rsatma bajarilmaganda, hisoblash qurilmalarning ko'rsatkichlari qabul qilinmaydi va hisoblash Qoidalarida o'rnatilgan tartibda amalga oshiriladi.
- 2.7. Suv o'tkazish-kanalizatsiya xo'jaligining rekonstruksiya, hisoblash qurilmalarini ishga tushirish, hisoblash qurilmalarini almashtirish, yangi sub-iste'molchilarning ulanishi Iste'molchi tomonidan faqat "Ta'minotchi" tarafidan tasdiqlangan texnik shartlar va loyiha asosida amalga oshirilishi mumkin bo'lib, ular "Iste'molchining" so'rovnomasi asosida, barcha tasdiqlovchi hujjatlarni ilova qilgan holda beriladi. "Ta'minotchi"dan olingan texnik shartlar asosida, "Iste'molchi" buyurtmasiga asosan, amaldagi meyor, qoidalar va boshqa meyoriy hujjatlar asosida loyihalashtirish tashkiloti tomonidan ulanish loyihasi ishlab chiqiladi.
- 2.8. Qurilgan ulanmalarining ishga tushirilishi "Ta'minotchi" korxonasi ishtirokida "Iste'molchi" va qurilish tashkilot vakillari tomonidan amalga oshiriladi.
- 2.9. Ichimlik suv ta'minoti va oqova suv xizmatlari uchun tariflar o'zgarganda, sanasidan qat'i nazar, ushbu xizmatlar yuzasidan iste'molchi bilan tuzilgan shartnoma o'z kuchini saqlab qoladi va iste'molchi ko'rsatilgan xizmatlar uchun, yangi tariflar asosida, ular kiritilgan sanadan e'tiboran to'lovlarni amalga oshirishi shart.
- 2.10. Limitdan ortiqcha suv iste'mol qilingan holatlarda "Ta'minotchi" tomonidan belgilangan tariflarga nisbatan 10,0 orttiriluvchi koeffitsiyentni qo'llash yo'li bilan haq undiriladi.

### III. Taraflarning huquq va majburiyatlari

- 3.1. Iste'molchining huquqlari:
  - a) "Ta'minotchi"dan tuzilgan shartnoma asosida, ichimlik suv va oqova suvni chiqarish xizmatlarining uzluksiz amalga oshirilishini, o'z hayoti va sog'lig'iga, mulkiga xavf tug'dirmaydigan darajadagi sifat va miqdorda ichimlik suv berilishini talab qilish;
  - b) tegishli sifat darajasidagi ichimlik suv va oqova suv tarmoqlariga xizmat ko'rsatish talablarini bajarmaganligi uchun "Ta'minotchi"dan qonunchilikda va shartnoma shartlarida ko'rsatilgan miqdorda jarima (penya)lar to'lashni talab qilish;
  - v) "Ta'minotchi"ni shartnomani bekor qilish to'g'risida kamida 15 kun oldin ogohlantirgan holda va ushbu muddatda suv ta'minoti yoki oqova suvni chiqarish bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlarni to'liq amalga oshirgan holda shartnomani bir tomonlama bekor qilish;
  - g) ichimlik suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish xizmatlari uchun amalga oshirilgan to'lovlarning holati, qarzlarning yo'qligi haqidagi ma'lumotlar va ma'lumotnomani (shaxsan yoki o'z vakili orqali) bepul olish;
  - d) "Ta'minotchi"dan ichimlik suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish xizmatlari hajmi va sifati, ularni amalga oshirish shartlari, to'lovlari va tartiblarning o'zgarishi haqidagi ma'lumotlarni bepul olish;

ye) ichimlik suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish bo'yicha xizmatlar ko'rsatilmayotganligi yoki ularning past sifatda ekanligi to'g'risidagi dalolatnoma taqdim etilgandan keyin 18 soat mobaynida ta'minotchidan nosozlik va kamchiliklarni bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risidagi ma'lumotlarni olish;

yo) Davlat sanitariya epidemiologiya markazi organlari tomonidan tasdiqlangan amaldagi standartlarga javob beradigan sifatli ichimlik suvi bilan ta'minlanmaganlik (sifatsiz ichimlik suv mavjudligi aniqlangan davrdan u tegishli darajaga olib kelingan vaqt) uchun qayta hisob-kitob amalga oshirilishini talab qilish.

### 3.2. Iste'molchining majburiyatlari:

a) qoidalar va shartnoma shartlarini bajarish;

b) o'zining hududida joylashgan va o'zlariga tegishli bo'lgan kommunal suv hamda oqova tarmoqlari, qurilmalarini qo'riqlanishini, ularga suv toshishi yoki shikastlanishiga, muzlab qolishiga yo'l qo'ymaslik, quduq qopqoqlarini qor va muzdan tozalash, "Ta'minotchi" tomonidan o'rnatilgan tamg'alarining butligini nazorat qilish, quduqlardan yuza oqovasi mavjudligini ta'minlash, yong'inga qarshi gidrantlarga o'tish yo'llarini bekitemaslik, ko'rsatilgan yong'inga qarshi gidrantlarning ko'rsatkichlari yaxshi ishlashini nazorat qilish;

v) "Iste'molchi" hududida yoki uning tasarrufidagi suv quvuri, oqova tarmoqlari va qurilmalarining ustidan inshootlar qurilmasligini, shu jumladan, tashqi (ko'cha va kvartal ichidagi) suv quvuri, oqova tarmoqlari va qurilmalarining ustidan inshootlar qurilishiga yo'l qo'ymaslik.

g) kommunal suv quvuri, oqova tarmoqlari va qurilmalarining tranzit nuqtalarida har qanday shikastlanish, buzilishlar haqida zudlik bilan "Ta'minotchi"ni xabardor qilish;

d) suvni hisobga olish asboblari yaqqol ko'rinib turgan nosozliklar, shuningdek tamg'ani butligiga shikast yetgan yoki uzilganligi to'g'risidagi holat aniqlanganda va hisobga olinmagan yong'inga qarshi gidrantlar mavjudligi haqida darhol yozma ravishda yoki aloqa tarmoqlari (faks, elektron pochta) orqali "Ta'minotchi"ga xabar berish;

ye) "Ta'minotchi" bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq majburiyatlariga rioya qilish, har oyning 23 dan 25 gacha sanasida ko'rsatkichlarni o'z vaqtida va aniq yechib olish hamda ushbu ko'rsatkichlarni "Ta'minotchiga" joriy oyning oxirgi kunidan kechikmagan holda ma'lumotlarni taqdim qilgan holda to'lovni amalga oshirish;

yo) shartnomada belgilangan miqdordan ortiq hajmda suvning ortiq sarf qilinishiga va oqova suvlarining meyordan ortiq chiqarilishiga yo'l qo'ymaslik;

j) "Ta'minotchi"ni o'z vaqtida suv o'tkazish-oqova xo'jaligidagi, bank ma'lumotlari va yuridik manzilidagi o'zgarishlar haqida xabardor qilish;

i) ishlab chiqarish oqova suvlarining oldindan tozalash ishlarini olib borish va ularning ifloslanish konsentratsiyasini meyordagi ko'rsatkichlarga o'tib ketmasligini ta'minlash;

y) oqova suvlarining sifatini monitoringini ta'minlash;

k) "Iste'molchi" hududida joylashgan suv o'lchash tarmog'i, kommunal suv o'tkazish va oqova tizimlarida har qanday ishlarning bajarilishiga begona shaxslarni qo'ymaslik;

l) jamoat suv va kanalizatsiya tizimlarini obyektlariga shikast zarar yetkazgan "Iste'molchi" darhol "Ta'minotchi"ga xabar berishi va yetkazilgan zararni qoplash uchun "Ta'minotchi" texnik nazorati ostida o'zi yetkazilgan shikastlanishni bartaraf etish va behuda sarf qilingan suv narxini to'lashi shart.

### 3.3. Ta'minotchining huquqlari:

a) "Ta'minotchi" quyidagi hollarda, iste'molchini 5 kun avval xabardor qilgan holda, suv uzatishni va oqova suvni chiqarishni to'liq yoki qisman to'xtatish huquqiga ega:

"Iste'molchi" hududida joylashgan va uning tasarrufidagi suv uzatish va oqova tarmoqlari, moslama va qurilmalarining texnik holati qoniqarsiz holatda bo'lsa va "Iste'molchi" texnik foydalanish qoidalarini buzish natijalarini "Ta'minotchi" vakillari talabiga ko'ra bartaraf etmasa;

"Ta'minotchi"ning vakili iste'molchi hududida joylashgan va uning tasarrufidagi bo'lgan suv uzatish va oqova tarmoqlari, moslama va qurilmalarida ishlar olib borish, tamg'a o'rnatishga va boshqa ishlarda "Iste'molchi" tomonidan asossiz xalaqat berilgan taqdirda;

"Ta'minotchi" tomonidan rejali oldini olish ta'mirlash ishlarini, suv o'tkazish va oqova tarmoqlarida ishlar bajarilishida, "Iste'molchi" ularga ulangan bo'lsa, va yangi "Iste'molchi"larni ulash uchun ishlarni o'tkazishda;

"Iste'molchi"ning xizmat ko'rsatilishida va uning tasarrufidagi kommunal suv ta'minoti hamda oqova suvni chiqarish xizmatlariga subiste'molchilarning o'zboshimchalik bilan ulanib olganligi aniqlanganda;

"Iste'molchi" belgilangan muddatlarda to'lov hujjatlariga muvofiq to'lovni amalga oshirmaganda;

"Ta'minotchi"ning roziligini olgan sub-ta'minotchilarning "Iste'molchi" tasarrufida bo'lgan kommunal suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish xizmatlariga ulanishiga rad javobini berganda;

"Iste'molchi"lar tomonidan kommunal suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish xizmatlarini ko'rsatish shartlariga rioya qilinmaganda;

energiya ta'minoti to'xtatilganda;

tabiiy ofatlarda;

avariyalarda;

yong'in chiqqan yerlarga suv yetkazish hajmini oshirish zaruriyati tug'ilganda.

### 3.4. "Ta'minotchi"ning majburiyatlari:

a) suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish bo'yicha shartnoma shartlarini bajarish;

b) suv yetkazilishini uzluksiz ta'minlash;

v) tizimli ravishda suv ta'minoti va kanalizatsiya tarmoqlari, iste'mol obyektlari va qurilmalariga ulangan suv ta'minoti va kanalizatsiya tarmoqlarining holatini va ishini tizimli nazorat qilishni amalga oshirish va ularni to'g'ri ishlashni tashkil etishda amaliy yordam ko'rsatish, budjet bilan birgalikda "Iste'molchi"lar suvidan oqilona foydalanish va suvdan oqilona foydalanishni aniqlash, suvni etkazib berish va iste'mol qilishni qat'iy nazorat qilish va hisobga olish, sanoatga muvofiqligini muntazam ravishda nazorat qilish va ularga tenglashtirilgan suv iste'mol qilish cheklolariga rioya qilishni nazorat qilish;

g) "Iste'molchi"larning suv o'lchagich asboblari o'rnatilgan tartib va muddatlarda tekshirish;

d) "Iste'molchi"ga, ushbu shartnomaning shartlarini bajarmagan hollarda, jarima penya to'lovlarini amalga oshirish;

ye) suv yetkazish va oqova suvni chiqarish uchun xizmat haqi to'lovlarining tariflari oshganda, ular kuchga kirgan kundan 15 kun avval ommaviy axborot vositalari orqali ma'lumot berish;

## IV. Taraflarning javobgarligi

4.1. Taraflar ushbu shartnomaga muvofiq majburiyatlarni bajarmaslikda yoki lozim darajada bajarmagan hollarda kelib chiqqan haqiqiy zararining o'rnini qoplashi shart.

### 4.2. Iste'molchi quyidagilar uchun javobgardir:

a) suv hisoblash qurilmasidagi tamg'alar, aylanish chizig'i jo'mragi, gidrantlar va boshqa suv uzatish moslamalaridagi qismlarning uning hududida va tasarrufida bo'lgan hamda tamg'alangan hisoblash qurilmalarining butunligi va saqlanishi uchun;

b) suv tarmoqlariga o'zboshimchalik ulanib olish, suv o'lchagich asbobining qasddan buzilishiga yo'l qo'yish hamda uning ko'rsatkichlariga tashqaridan aralashgan holda o'zgartirish holatlari uchun;

v) o'zboshimchalik bilan qurilgan inshootlar sababli tarmoqlardagi avariya bo'lgan xolatlarida;

g) qonunchilikda o'rnatilgan boshqa hollarda.

d) kommunal drenaj tizimi mavjud bo'lsa "Iste'molchi" hududida joylashgan oqova tarmog'iga yong'ir va erigan qor suvlarining tushishiga yo'l qo'ymaslik. Ushbu qoidabuzarlik aniqlanganda "Ta'minotchi" o'rnatilgan tartibda dalolatnoma tuzadi va ushbu dalolatnoma "Iste'molchi"ning mas'uliyati va javobgarlik chorasini belgilash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

- 4.3 "Ta'minotch" quyidagilar uchun javobgar:
  - a) amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarining talablariga muvofiq uzatilayotgan suvning sifati va qonunchilikda hamda shartnoma shartlarida ko'zda tutilgan boshqqa holatlar;
  - b) "Iste'molchi"lariga suv ta'minotiga ulanish va oqova suvni chiqarish xizmatlaridan foydalanish uchun zarur bo'lgan texnik shartlarining o'z vaqtida va istonchilik taqdim qilinishi uchun;
  - v) "Iste'molchi"ning hayot, salomatligi va mol-mulligiga yetkazilgan zarar, mahaviy zarar uchun qonunchilikda o'rnatilgan tartib va miqdorda, qoplash;
- g) shartnoma shartlari va yulkitilgan majburiyatlarini bajarish;
- d) qonunchilikda o'rnatilgan boshqqa holatlar.

**V. Suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish tizimlarida ko'rsatilgan xizmatlar uchun hisob-kitob qilish**

- 5.1 Kommunal suv ta'minoti tizimidan chiqarilgan (qabul qilingan) suvning hisobi suv o'chagich asbobi mavjud bo'lganda, uning ko'rsatkichlariga muvofiq, amaldagi tartib bo'yicha QSnI hisobga olingan holda amalga oshiriladi.
- 5.2. Iste'molchilarning kommunal kanalizatsiya tizimiga chiqariladigan oqova suvlarini miqdori kommunal suv ta'minoti tizimidan sarflagan suv miqdoriga teng deb qabul qilinadi. Markazlashtirilgan issiq suv ta'minoti mavjud turar joy xonalardan chiqadigan oqova suv miqdori iste'molchilari uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan tasdiqlanadigan qaror bilan belgilangan ko'rsatkichlar uchun 2 ko'rsatkichlaridan oshimagan holda) mahalliy sharoitlardan kelib chiqib belgilanadi.
- 5.3. Suv ta'minotining xususiy avtonom manba (quduq, ochiq suv olish havzas, irrigatsiya tizimi va h.k.) mavjud bo'lganda kommunal kanalizatsiya tizimiga oqovalarni oqizish hajmi o'rnatilgan nasosning ishlab chiqarish quvvati yoki o'rnatilgan va ro'yxatdan o'tkazilgan hisoblash asbobining ko'rsatkichlari bo'yicha aniqlanadi. Iste'molchiga qarashli bo'lgan avtonom suv ta'minoti manbaining ichki tizimi markaziy suv ta'minoti tizimi bilan tutashmagan bo'lishi kerak.
- 5.4. Ichimlik suv ta'minoti tizimiga ulanmagan, shuningdek boshqqa suv quvurlaridan (manbalardan) o'z ehtiyojlarini uchun qo'shimcha suv ishlatadigan iste'molchilarga ISKX tashkilotiga texnik ko'rsatmalar bilan birga mavjud suv olish qurilmalarini haqidagi ma'lumotlarni taqdim etishlari shart. Mazkur ma'lumotlar iste'molchi tomonidan taqdim etilmagan taqdirda ISKX tashkiloti ular tomonidan kommunal kanalizatsiya tizimiga ulanishning o'tkazish quvvati bo'yicha qabul qilinayotgan oqova suvlar miqdorini Qoidalarining 93-bandida nazarda tutilgan formula bo'yicha aniqlashga haqli.
- 5.5. Ichimlik suvdan dov-daraxtlarni sug'orish uchun foydalanilishiga quyidagi istisno holatlarida yo'l qo'yiladi: irrigatsiya suvi bo'lmagan, ISKX tashkiloti quvvati mavjud bo'lganda va mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan tasdiqlangan javdal bo'yicha, taqat tungi vaqtda (soat 00-00 dan soat 05-00 gacha) yo'l qo'yiladi.
- Dov-daraxtlar rasmiy ruxsatiz yoki ko'rsatilgan vaqtda sug'orilgan holatlar, bir oyda foydalanilgan suv uchun to'lov II va III guruh iste'molchilari uchun ushbu Qoidalar 87-bandining «b» kichik bandi bo'yicha hisoblanadi.

**VI. Alohida shartlar**

- 6.1. Obyekt egasi o'zgariganda iste'molchi chiqib ketishidan 7 kun avval mavjud qarzlarni uzib, bu haqda ISKX tashkiloti bilan dalolatnoma imzolashi shart. Iste'molchi chiqib ketgach, suvni hisobga olish asbobi, plomballarining buhligi va goplamagan debitor qarzdorlik uchun javobgarligi obyektning yangi egasi zimmasiga yuqkalanadi.
- 6.2. "Iste'molchi" suv o'chagich asbobi ro'yhatga olish, suv o'chagich asbobining nosozligi, tamgalarining but emashligi va saqlanmaganligi kebi holatlar «Ta'minotch» ga taqatiga yozma ravishda xat bilan murojaat etilgan sanadan e'tiboran inobatga olinadi.
- 6.3. Sarflagan suv hajmi quvurning o'tkazish qobiliyatidan kelib chiqib oynning kalendar kunlari hisobidan quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$\bar{Q} = M \times F \times \sqrt{2g \times H} \times i$$


unda:

- M - 0,60 ga teng bo'lgan zulfan orqali suv sarfi ko'rsatkichi;
- F - suyuqlik oqib o'tadigan quvur yoki teshik kesimi maydoni (ichki diametr bo'yicha) m<sup>2</sup>;
- g - 9,81 m/sek ga teng bo'lgan erkin tushish tezligi;
- N - suvning metrlardagi bostimi;
- t - vaqt - 24 soat, sekundlarda;

**Quyidagi holatlarida:**

- 6.3.1. "Iste'molchi" da suv o'chash asbobi buzilgan, nosoz yoki yo'q bo'lgan holatlarida;
- 6.3.2. Suv o'chash asbobi yoki moslamasi "Ta'minotch" da ro'yhatdan o'tmagan (plomballanmagan) taqdirda;
- 6.3.3. Suv o'chash asbobi, moslamasi ishdan chiqqan, singan, buzilgan (plomballanmagan) kunigacha;
- 6.3.4. "Ta'minotch"ning suv o'chash bo'g'inini diametri kichikroq bo'lgan moslamaga almashtirish to'g'risidagi ko'rsatmasi bajarilmaganida;
- 6.3.5. Suv o'chash asbobining hisob-kitobi olib borish bo'yidagi qo'yilgan himoya goplamiga (tamgaga) ruxsatsiz tegish natijasida ichimlik suv sarfini aniqlash imkoniyati cheklanganida;
- 6.4. Ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlari hamda qurilmalariga o'zbo'shimchilik bilan ulanib olinganlik aniqlangan taqdirda, sarflagan suv va qabul qilingan oqova suvlar miqdori mazkur Qoidalarining 87-bandiga muvofiq, ulanishning suv uzatish quvvati bo'yicha quyidagi kunda boshlab hisob-kitob qilinadi:

- 6.5. "Iste'molchi" tomonidan suv uzatish xizmatlarini yakunlashga asos bo'lad.
- 6.6. "Iste'molchi" kommunal suv ta'minoti va oqova suvni chiqarib yuborish tarmoqlariga ulanish sanasi haqidagi hujjatlarini taqdim etmagan holatlarida "Ta'minotch" tomonidan, xokim qarori va kadastir hujjatlarini asosida, hujjat bilan tasdiqlangan ulanish sanasi bo'yicha hisob-kitob qilishga haqli.
- 6.7. Ishlatilgan suv va chiqarilgan oqova suv uchun to'lovlar iste'molchi tomonidan ularga xizmat ko'rsatuvchi banklar orqali amalga oshiriladi. To'lovlar o'z vaqtida amalga oshirilmagan taqdirda, "Ta'minotch" tomonidan kechiktirilgan to'lovlarning har bir kuni uchun 0,4% oshiriladi. Biron qaynagan umumiy qiyamat qarzdorlikning 50% dan oshmasligi lozim.
- 6.8. "Iste'molchi" hisob raqamini mavjud bo'lmagan taqdirda, to'lovlar bank bo'limlarining kiritim kassalari orqali hisobot davridan keyingi 10 kun muddat ichida to'lanadi.
- 6.9. Ichimlik suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimidan ilgari uzib qo'yilgan (o'zbo'shimchilik bilan ulanish, qarzdorlik mavjud bo'lganda yoki shartnoma shartlari iste'molchilardan bazaviy hisoblash mijdorining o'rin baravari miqdorida to'lov qayta ulanishni amalga oshirgan miqdori, II va III guruh iste'molchilardan bazaviy hisoblash mijdorining o'rin baravari miqdorida to'lov qayta ulanishni amalga oshirgan tashkilot hisobiga mablag'larini o'tkazish orqali 3 kundan kechiktirilmay tarmoqqa qayta ulanadi.



6.10. Kanalizatsiya tizimiga ruxsat etilmagan yomg'ir va erkin qor suvlari oqizilayotgan, ishlab chiqarish oqova suvlarini "Iste'molchi" lar tomonidan tashlash tartibi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 3 fevral kuni qabul qilingan 11 sonli qarori bilan tasdiqlangan "Ishlab chiqarish oqova suvlarini qabul qilish qoidalari" hamda ifloslantiruvchi moddalarning O'zbekiston Respublikasi shaharlari va boshqa aholi punktlarining kommunal kanalizatsiya tarmoqlariga normativdan ortiqcha oqizilganligi uchun "Iste'molchi"larga belgilangan tarifga nisbatan 3 (uch) barobar ortiriluvchi koeffitsient miqdor tartibida hisoblanadi.

6.11. Hisob-kitobning noto'g'ri qilinganligi (tariflarning noto'g'ri hisobiga olinganligi va shu kabi holatlar) to'g'risida "Iste'molchi" yoziladigan e'tiroznoma to'lov hujjati olingandan keyin 5 kun muddatda "Ta'minotchi"ga taqdim etilishi kerak. E'tiroznoma "Iste'molchi"ni to'lov talabnomasi va hujjatida ko'rsatilgan summani to'liq va belgilangan muddatda to'lashdan ozod qilmaydi.

#### VII. Nizolarni hal etish tartibi

7.1. Taraflar o'rtasida Qoidalar va shartnoma yuzasidan kelib chiqqan nizolar kelishuv yo'li bilan hal qilinmagan taqdirda, nizolar Samarqand shahar iqtisodiy sudi yoki Fuqarolik ishlari bo'yicha Samarqand shahar sudida ko'rib chiqiladi.

#### VIII. Fors - major

8.1. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiat xodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch (fors major) holatlari (zilzila, suv toshqini, yomg'in, sel, do'l, jala va boshqa tabiiy ofatlar) natijasida kelib chiqsa va agar bu holatlar muzkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'lmaydigan kuch holatlari amal qilgan, shuningdek ushbu holatlar yuzaga keltirgan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

8.2. Fors-major holati mavjud bo'lgan tomon 3 kun ichida boshqa tomonni fors-major holati boshlangan muddatlarni ko'rsatgan holda yozma ravishda ogohlantirishi lozim.

8.3. Agar fors-major holatining shartnoma shartlarini bajarishga uch oydan ko'p muddat to'sqinlik qilsa, tomonlardan biri shartnomani bekor qilish huquqiga ega.

#### IX. Shartnomaning amal qilish muddati

9.1. Mazkur shartnoma ikki nusxada tuziladi va xar bir tarafda bir nusxadan saqlanadi. Shartnoma taraflar imzolangan paytdan kuchga kiradi. Shartnomaga qo'shimcha va o'zgartirishlar taraflarning kelishuviga asosan yozma shaklda amalga oshiriladi.

9.2. Shartnoma imzolangan sanadan boshlab bir yil muddat davomida haqiqiy hisoblanadi va taraflarning birortasi shartnomani bekor qilish haqida yozma ravishda murojaat qilmasa, keyingi muddatga uzaytirilgan hisoblanadi.

9.2.1. Ushbu shartnoma II guruh iste'molchilari (budjet tashkilotlari) uchun G'aznachilik organlarida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 28 fevraldagi 594-sonli Qaroriga muvofiq, majburiy ro'yhatga olingan kundan boshlab kuchga kiradi. Budjetdan mablag' oluvchilar uchun 2016 yil 22 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2850-son bilan ruyxatga olingan "O'zbekiston Respublikasi budjet tizimi budjetlarining G'azna ijrosi koidalari"ga asosan amal qilish muddati 31 dekabr 2022 yilgacha belgilanadi.

9.3. Ushbu shartnomada o'z ifodasini topmagan barcha masalalarning hal qilinishida tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi hamda Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 15 iyuldagi 194-sonli Qarori bilan tasdiqlangan "Iste'molchilarga suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish xizmatlari ko'rsatish qoidalari" ga amal qilishadi.

#### X. Tomonlarning manzil va rekvizitlari:

**"Ta'minotchi"**  
«Samarqand suv ta'minoti» MCHJ  
Samarqand sh. O'zbekiston ko'chasi 114 A uy,  
Tel/faks: 66-2370408  
B/r: 22638000800307743396  
ATIB "ipoteka banki"  
Samarqand viloyati filiali  
MFO 00812, STIR 200613125, XXTUT 90213  
www.suvokova.uz  
M.O.

**"Iste'molchi"**  
Samarqand shahar Davlat soliq inspeksiyasi  
Samarqand shahar Gagarin ko'chasi -85 A uy.  
Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги Қазначилиги  
X/p: 2000300100001010  
manzil: 2000300100001010  
h/r: 2000300100001010  
MFO: 2000300100001010  
STIR: 201122919  
e-mail: 2000300100001010  
10010860184017011332083001  
tel: 2000300100001010  
БОШЛИК  
M.O. Э.М. Тошев.

Yuridik xulosa:

Ushbu Shartnoma O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi va "Xo'jalik yurituvchi subyektlarning shartnomaviy-huquqiy bazasi" to'g'risidagi Qonuni talablariga muvofiq keladi.

Yuridik xizmat vizasi

**АЗИМ ХАСАНОВ**  
**ЮРИСКОНСУЛЬТ**  
ЮК №004836 от 26.02.2016г.